

**O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI****PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE TAX SYSTEM
OF UZBEKISTAN****Умурзак Раджабов****Тошкент халқаро университети мустақил тадқиқотчиси**Email: umurzakradjabov8@gmail.comORCID: <https://orcid.org/0009-0002-0614-7460>

Annotatsiya: Ushbu tezis O'zbekistonda soliq tizimini samaradorligini oshirish imkoniyatlari qanday va qaysi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi, degan asosiy savolga javob izlaydi. 2018–2019-yillardagi tub islohotlar - soliq stavkalarini kamaytirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish - tahlil qilingan, ularning byudjet daromadlari va tadbirkorlik faolligiga ta'siri ko'rsatilgan. Tadqiqot shuni isbotlaydiki, soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish, soliq bazasini kengaytirish va hududiy differentsiatsiya birgalikda amalga oshirilgandagina barqaror natija beradi.

Abstract: This thesis investigates the central question of how the efficiency of the tax system of Uzbekistan can be improved and which directions should be considered priorities. The fundamental reforms of 2018–2019 - reduction of tax rates and modernization of tax administration - are analyzed, along with their impact on budget revenues and entrepreneurial activity. The study demonstrates that digitalization of tax administration, broadening of the tax base, and regional differentiation yield sustainable results only when implemented jointly.

Kalit so'zlar: soliq tizimi, soliq siyosati, soliq ma'muriyatchiligi, soliq yuki, raqamlashtirish, soliq islohoti, O'zbekiston.

Kirish

Soliq tizimini takomillashtirish masalasi o'tish iqtisodiyotlari uchun, xususan O'zbekiston uchun, strategik ahamiyat kasb etadi: soliq nafaqat byudjet daromadlarini shakllantirishning asosi, balki investitsiya muhitini, ishlab chiqarish faolligini va ijtimoiy adolatni tartibga soluvchi muhim vositadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-sonli “O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida”gi Farmoni soliq tizimini tubdan isloh qilishning boshlang'ich nuqtasi bo'ldi¹. Ushbu Farmonga muvofiq 2019-yil 1-yanvardan jismoniy shaxslar daromad solig'ining yuqori stavkasi 22 foizdan 12 foizga, yuridik shaxslar foyda solig'i 14 foizdan 12 foizga, yagona ijtimoiy to'lov 25 foizdan 15 foizga, yuridik shaxslar mol-mulk solig'i 5 foizdan 2 foizga tushirildi¹. Bir paytning o'zida soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi “Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-sonli "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni



to'g'risida”gi PF-5116-sonli Farmoni bilan davlat soliq xizmati organlari faoliyatining 37 banddan iborat chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi².

Aynan mana shu savol - *O'zbekiston soliq tizimini samaradorligini oshirishning qaysi yo'nalishlari ustuvor va ular o'zaro qanday munosabatda bo'lishi kerak?* - ushbu tezisning asosiy tadqiqot savoli hisoblanadi. Gipoteza sifatida quyidagi fikr ilgari suriladi: stavkalarni pasaytirish, ma'muriyatchilikni raqamlashtirish va hududiy soliq bazasini kengaytirish faqat o'zaro bog'liq kompleks siyosat sifatida amalga oshirilgandagina barqaror samaradorlik beradi.

Mavzu bo'yicha adabiyot tahlili

O'zbek iqtisodchilari orasida soliq siyosati nazariyasini chuqur ishlab chiqqan tadqiqotchilardan biri Xudoyqulov S.K. hisoblanadi. Uning “Soliq siyosati” o'quv qo'llanmasida (Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, 2020) soliq siyosatining samaradorligini baholash ikki guruh ko'rsatkich orqali tavsiflanadi: birinchi guruhga soliq yukining pasayishiga muvofiq byudjet daromadlarining o'zgarishi, ishlab chiqarish hajmlari, investitsiyalar samarasi va aholi real daromadlari kiradi; ikkinchi guruhga esa bevosita soliq tizimining ichki mexanizmlari - soliq to'lovchilar sonining o'zgarishi, soliq qarzdorligi darajasi va soliq imtiyozlarining samara berish darajasi kiradi³. Ushbu metodologik yondashuv ushbu tezisdagi samaradorlikni baholash mezon sifatida qo'llaniladi.

Xudoyqulov va boshqalar (2020) shuningdek, O'zbekiston soliq siyosatining tarixiy rivojlanishini to'rt bosqichga ajratadi, bunda 2008–2017-yillarni qamragan to'rtinchi bosqichda rag'batlantiruvchi tamoyillar kuchaytirilgani, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi PF-4434-sonli “To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni va 2012-yil 16-iyuldagi PF-4453-sonli Farmoni orqali litsenziyalanadigan faoliyat turlarining 20 foizi bekor qilingani ko'rsatib o'tilgan⁴. Bu tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda soliq islohoti uzluksiz va bosqichma-bosqich xususiyatga ega bo'lib, har bir bosqich avvalgisining davomi sifatida shakllangan.

Soliq ma'muriyatchiligi masalasi bo'yicha Jo'rayev A.S. (Toshkent Moliya Instituti “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasini mudiri) tomonidan tuzilgan “Soliq ma'murchiligi” fanidan o'quv-uslubiy majmuada (2018) kameral nazorat va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlarining ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Muallifning ko'rsatishicha, PF-5116-sonli Farmon doirasida joriy etilgan onlayn rejimdagi nazorat-kassa mashinalari orqali naqd pul tushumi ustidan avtomatlashtirilgan nazorat tizimi xufyona biznes faoliyatini cheklash uchun muhim vosita bo'ldi². Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-sonli “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori soliq xizmati tashkiliy tuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan bo'lib, mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldirilgan mablag'larning 2017-yildagi 960,2 mlrd so'mdan 2018-yilda 5500 mlrd so'mgacha, ya'ni qariyb 6 barobar o'sishiga sabab

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-sonli “Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni

³ Xudoyqulov, S.K., Quzieva, N.R., Nurullaev, A.S. (2020). Soliq siyosati: O'quv qo'llanma. - Toshkent: “IQTISODIYOT”, 2020. - 206 b.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi PF-4434-sonli “To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni



bo'ldi⁵.

Biroq mavjud adabiyotda bitta muhim bo'shliq ko'zga tashlanadi: hududiy farqlanish hisobga olinmaydi. Xudoyqulov va boshqalar (2020) keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, mahalliy byudjet ixtiyoridagi mablag'lar hududlar bo'yicha notekis o'sgan - masalan, Andijon viloyatida 2017-yildagi 61,2 mlrd so'mdan 2018-yilda 2796 mlrd so'mgacha, Sirdaryo viloyatida esa atigi 30,0 mlrd so'mdan 171,0 mlrd so'mgacha oshgan⁶. Bu farq hududiy iqtisodiy salohiyat va soliq bazasi tarkibidagi tafovutlardan kelib chiqadi, biroq mavjud tadqiqotlarda bu masala alohida tahlil qilinmagan - bu esa tadqiqotning yangiligini belgilaydi.

Asosiy qism

Birinchi yo'nalish: soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish. PF-5468-sonli Farmon doirasida amalga oshirilgan stavkalarni pasaytirish chorasi nafaqat soliq to'lovchilar uchun yengillik yaratdi, balki tadbirkorlik subyektlari ixtiyorida qo'shimcha 2 trillion so'm mablag' qoldirdi¹. Shu bilan birga, Xudoyqulov va boshqalar (2020) ta'kidlashicha, 2018-yilgacha amal qilgan tizimda korxona daromadining 21 foizigacha bo'lgan qismi davlat maqsadli jamg'armalariga ajratma sifatida olib qo'yilar edi, bu esa raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga to'sqinlik qilardi⁷. Stavkalarni kamaytirish bu muammoni bartaraf etishga qaratilgan birinchi qadam bo'ldi, biroq yolg'iz o'zi yetarli emas: agar ma'muriyatchilik tizimi o'zgarmasa, past stavkalar ham to'liq yig'ilmaydi.

Ikkinchi yo'nalish: soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish va nazoratni avtomatlashtirish. Jo'rayev (2018) ko'rsatishicha, PF-5116-sonli Farmon bilan joriy etilgan onlayn nazorat-kassa mashinalari tizimi va kameral nazoratning to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz shakllari soliq nazoratining samaradorligini sezilarli oshirdi⁸. Bundan tashqari, 2019-yildan boshlab joriy etilgan soddalashtirilgan QQS to'lash mexanizmi orqali tovar aylanmasi 1 milliard so'mdan yuqori bo'lgan subyektlar umumbelgilangan soliq tizimiga o'tkazildi, bu esa soliq zanjiridagi “yo'qolib qolish” muammosini - ya'ni QQS hisobga olinadigan summaning zanjir uzilishi natijasida yo'qolib, yakuniy mahsulot narxining sun'iy oshib ketishini - kamaytirdi. Raqamlashtirish ikki yo'nalishda ishlaydi: bir tomondan, soliq to'lovchilar uchun hisobotni soddalashtiradi; ikkinchi tomondan, davlat uchun real vaqtda monitoring imkonini beradi va norasmiy faoliyatni qiyinlashtiradi.

Uchinchi yo'nalish: hududiy soliq salohiyatini muvozanatlash. Yuqorida keltirilgan hududlararo farq (Andijon va Sirdaryo misolida) shuni ko'rsatadiki, milliy darajadagi yagona soliq siyosati barcha hududlarda bir xil samarani bermaydi. Soliq bazasi kengroq bo'lgan hududlar islohotdan tezroq foyda ko'radi, kamrivojlangan hududlarda esa stavkalarni pasaytirish samarasi sekinroq namoyon bo'ladi, chunki bazaning o'zi tor. Shu sababli markaziy islohotlarni hududiy darajada qo'llab-quvvatlovchi maxsus mexanizmlar - masalan, mahalliy soliq ma'muriyatchiligi infratuzilmasini kuchaytirish va kichik tadbirkorlikni hududiy darajada rag'batlantirish - zarur.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-sonli "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-sonli "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni

⁷ Xudoyqulov, S.K., Quzieva, N.R., Nurullaev, A.S. (2020). Soliq siyosati: O'quv qo'llanma. - Toshkent: "IQTISODIYOT", 2020. - 206 b.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-sonli "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni



Uchala yo'nalishning o'zaro bog'liqligi quyidagicha: soliq yukini kamaytirish rasmiy faoliyat yuritishni jozibali qiladi → raqamlashtirilgan nazorat tizimi bu rasmiylashtirishni kuzatish va mustahkamlash imkonini beradi → kengaygan rasmiy soliq bazasidan kelib tushgan qo'shimcha daromad hududiy infratuzilmani rivojlantirish uchun zaxira yaratadi. Bu - bir-birini kuchaytiruvchi uch bosqichli mexanizm bo'lib, har bir element navbatdasisining samaradorligini oshiradi.

Xudoyqulov va boshqalar (2020) keltirgan tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, oxirgi 15 yil davomida davlat byudjetiga soliq tushumlari prognoz ko'rsatkichlarining bajarilishi notekis bo'lgan: 2012 va 2015-yillarda o'rtacha 0,8 foizga, 2014-yilda 5,1 foizga ortig'i bilan bajarilgan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 11,7 foizga, 2018-yilda esa 20 foizga yaqin ortig'i bilan bajarilgan¹. Bu o'sish sur'atining 2017–2018-yillarda keskin tezlashishi aynan stavkalarni pasaytirish va ma'muriyatchilikni takomillashtirishning bir vaqtda amalga oshirilishi bilan mos keladi - bu esa gipotezani bilvosita tasdiqlaydi: alohida-alohida emas, balki birgalikda qo'llanilgan chora-tadbirlar sezilarli natija bergan.

Shu bilan birga, agar faqat stavkalarni pasaytirish amalga oshirilib, nazorat mexanizmlari kuchaytirilmasa, byudjet daromadlari kamayishi xavfi mavjud edi. Aksincha, agar faqat nazorat kuchaytirilib, stavkalar yuqori qolaversa, bu tadbirkorlik faolligini bo'g'ardi. Aynan ikkala chora-tadbirning muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi - bir tomondan yukni kamaytirib, ikkinchi tomondan yig'iluvchanlikni oshirib - byudjet daromadlarining barqaror o'sishini ta'minladi.

Xulosa

Tezisdagi qo'yilgan asosiy savol - O'zbekiston soliq tizimini samaradorligini oshirishning qaysi yo'nalishlari ustuvor? - tahlil asosida quyidagicha javob berildi: soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish, ma'muriyatchilikni raqamlashtirish va hududiy soliq salohiyatini muvozanatlashtirish bir-birini to'ldiruvchi uchta ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bu gipoteza O'zbekiston qonunchiligi (PF-5468, PF-5116, PQ-3802) va milliy iqtisodchilar (Xudoyqulov va boshqalar, 2020; Jo'rayev, 2018) tomonidan keltirilgan empirik ma'lumotlar asosida asoslandi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, hududlararo farqlarni miqdoriy jihatdan chuqur tahlil qilish va kauzal bog'liqlikni statistik usullar bilan o'lchash doktorlik dissertatsiyasining keyingi boblari uchun qoldirildi. Shunga qaramay, ushbu tezis dissertatsiyaning 3.3-bo'limi uchun kontseptual asos yaratadi va O'zbekiston soliq tizimi samaradorligini oshirishning real qonunchilik va statistik dalillarga asoslangan uchta ustuvor yo'nalishini aniqlab berdi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-sonli "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni. - lex.uz/uz/docs/3823183
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-sonli "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. - lex.uz/uz/docs/3253173
3. Xudoyqulov, S.K., Quzieva, N.R., Nurullaev, A.S. (2020). Soliq siyosati: O'quv qo'llanma. - Toshkent: "IQTISODIYOT", 2020. - 206 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi PF-4434-sonli



"To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. - lex.uz/uz/docs/1986201

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-sonli "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. - lex.uz/uz/docs/3811359

6. Jo'rayev, A.S., Meyliev, O.R., Berdiyeva, O'.A. (2018). "Soliq ma'murchiligi" fanidan o'quv-uslubiy majmua. - Toshkent: Toshkent Moliya Instituti, 2018/2019.

7. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O'RQ-599-sonli "Soliq kodeksi to'g'risida"gi Qonuni. - lex.uz/uz/docs/4674893